

# Yashil

IQTISODIYOT  
TARAQQIYOT  
va

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4



No 3

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# **Yashil** IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinosari:**

**Karimov Norboy G'aniyevich**

*Elektron nashr. 796 sahifa.*

*E'lom qilishga 2024-yil 30-martda ruxsat etildi.*

**Muharrir:**

**Qurbanov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinosari

**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

**Axmedov Sayfullo Normatovich** i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

**Xudoqulov Sadirdin Karimovich**, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

**Abduraxanova Guinora Kalandarovna**, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, i.f.d., TMI professori

**Samadov Asqarjon Nishonovich**, i.f.n., TDIU professori

**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori

**Axmedov Ikrom Akramovich**, i.f.d. TDIU professori

**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor

**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, i.f.d., TDIU professori

**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori

**Musyeva Shoira Azimovna**, SamDu IS instituti professori

**Axmedov Javohir Jamolovich**, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinosari

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi

**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti

**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti

**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, i.f.f.d., TDIU dotsenti

**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Uteyev Uktam Choriyevich**, O'zR Bosh prokururasi boshqarma boshlig'i o'rinosari

**Ochilov Farxod**, O'zR Bosh prokururasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi

**Ekspertlar kengashi:**

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti

**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti

**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti

**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi,  
O'zR Bosh prokururasi huzuridagi IJQK departamenti.



# MUNDARIJA

Экологические и альтернативные заполнители для бетона в условиях Узбекистана.....	10
Акрамов Хуснитдин Ахрарович, Тохиров Жалолиддин Очилович, Самадов Хомид Самандарович	
Investitsion marketingni rivojlantirish asosida mintaqqa investitsiya jozibadorligini oshirish .....	16
Ahmedov Alim Babaniyazovich	
O'zbekistonda yashil budjetlashtirish, energiya samaradorligi va issiqxona gazlari emissiyasi.....	22
Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Qulliyev Ulug'bek Mirzayevich, Mamanov Alisher	
Development of the Digital Economy as a Trigger of the Economic Growth of the New Uzbekistan.....	28
Luiza Sayfullovna Makhmutkhodjaeva, Umarova Shahnoza Akbarovna	
Oliy o'quv yurtlarida matematik statistikani o'qitishning xususiyatlari.....	34
Shamsiyev Damin Najmuddinovich, Aymatova Farida Xo'razovna	
Turizmda tadbirkorlikning o'ziga xos xususiyatlari .....	37
Mardonova Dilafruz Kosimovna	
Oziq-ovqat xavfsizligi ta'minoti: O'zbekistonda mayonez importini notarif tartibga solish va ichki ishlab chiqarishni rivojlantirish istiqbollari.....	41
Muratova Shohista Nimatullayevna, Nomozov Azizbek Xayrulla o'g'li	
Mamlakatimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda qimmatli qog'ozlar bozorining o'rni va roli .....	46
Akramov Azamat Ramziddinovich	
Mamlakatning iqtisodiy va ekologik rivojlanishida elektromobil sanoatini rivojlantirishning ahamiyati .....	53
Iminov Mahmudjon Azimjon o'g'li	
Hududiy eksport salohiyatini oshirishning marketing strategiyasi.....	60
Jiyamuratov Rustam Nuridinovich	
Turistik kompaniyalar moliyaviy barqarorligini baholash usullarini takomillashtirish kompaniya moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim mezoni.....	65
Jo'rayev Behzod Nuraliyevich	
Iste'molchilarni xulq-atvori modellari asosida marketing strategiyalarini shakillantirish.....	70
Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna	
Hisob siyosati va unda biologik aktivlar hisobini yoritib berish tartibini takomillashtirish .....	75
Mirzayeva Nargiza Batirovna	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalarning o'rni.....	80
Otajonova Charosxon Polvonquli qizi	
Innovatsion menejment va raqamli transformatsiyalarni joriy etishning metodologik asoslari.....	84
Quldoshev Asliddin Tursunovich	
Strategik boshqaruvida xususiy kapital samaradorligini baholash.....	89
Nasriyeva Zebiniso A'zam kizi, Mavlyanova Dilobar Maxkamovna	
Mintaqalarni innovatsion rivojlantirish istiqbollari tashkiliy tuzilmalarini takomillashtirishni boshqarish yo'llari .....	100
Xodjamuratova Gulbaxar Yuldashevna	
Meva-sabzavot eksporti barqarorligini ta'minlashning ekonometrik tahlili .....	105
Shamsiyeva Feruza Muratxodjayevna	
Zarubежный опыт активизации экономической активности домохозяйств.....	111
Бердиев Гайрат Ибрагимович, Маликова Севинч Телман кизи, Люсиков Артемий Александрович	
The Impact of Foreign Direct Investment on Economic Growth: A Case Study of Uzbekistan.....	116
Abdulla Ibragimov, Keldiyorov Shakhriyor Ilyos O'g'li	



Mintaqada sanoat ishlab chiqarish rivojlanishining kambag' allikni qisqartirishdagi ahamiyati .....	121
<b>Abdullayev Habibullo Asadulla o'g'li</b>	
Global iqtisodiyot sharoitida islom moliyasi mezon va tartiblarini joriy etishdagi muammolar va yechimlar.....	125
<b>Abduvosidova Gulandom Abdurashid qizi</b>	
Amerika Qo'shma Shtatlari tajribasida biznes subyektlarini toifalarga ajratish amaliyotining xususiyatlari .....	131
<b>Akobirova Nodira Najmiddin qizi</b>	
O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlanish yo'llari.....	135
<b>Axmedova Nafisa Amirkuddin qizi</b>	
Strategic directions of integration of Uzbekistan into the international hospitality industry.....	140
<b>Bekmurodova Laylo Tursunmamatovna</b>	
Surxondaryo viloyatida parrandachilikni rivojlantirish ko'rsatkichlarini prognozlash va modellashtirish.....	144
<b>Bobomuratov Imomqul Islamovich</b>	
Mamlakatimizda chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishning hozirgi holati va uning tahlili.....	149
<b>Talipova Dilfuza Nabiyevna</b>	
Agrar soha korxonalarining moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	154
<b>Erkinxojiyev Ismoiljon Ikromjon o'g'li</b>	
Analysis of the Influence of Macroeconomic Indicators on State Budget Tax Revenue .....	158
<b>Meyliev O. R., Gofurova K.</b>	
Mahalliy budjet xarajatlarini hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.....	166
<b>Hazratqulov Shahboz Boboqul o'g'li</b>	
Influence of Digital Technologies on Economic Growth of the Republic of Uzbekistan.....	170
<b>Igamberdiyeva Kunduz Ergashevna</b>	
Transmilliy kompaniyalarning tashqi bozorlar uchun marketing strategiyalari va marketing tadqiqotlarini o'tkazish amaliyoti .....	174
<b>Jo'rayeva Zilola Turobovna, Saidova Dilnozaxon Odiljon qizi</b>	
Tijorat banklari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashni rivojlantirish imkoniyatlari.....	178
<b>Kamilova Iroda Xusniddinovna</b>	
Korxonalarda inqirozga qarshi moliyaviy boshqaruvi tizimini takomillashtirish .....	183
<b>Latipova Shaxnoza Maxmudovna</b>	
Tijorat banklari faoliyatida onlayn tizimlarining tutgan o'rni va ularning rivojlanishi.....	188
<b>Raxmataliyev Muzaffar Eshdavlatovich</b>	
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik faoliyatining ta'sirini baholashning nazariy asoslari .....	194
<b>Fayziyeva Dilsuz Bahodirovna</b>	
O'zbekiston Respublikasini "yashil" iqtisodiyotga o'tish samaradorligini oshirish.....	200
<b>Mirzayev Bexruz Abdulla o'g'li</b>	
Andijon viloyatida kambag' allik darajasini qisqarishiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar .....	214
<b>Musaeva Ziyoda Allayarovna</b>	
O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi eksportida marketing muammolari .....	218
<b>Musyeva Shoira Azimovna, Agzamov Avazxon Talgatovich</b>	
Respublikamizda parranda bosh sonining hozirgi holati va uning istiqbollari.....	223
<b>Akramova Nargiza Axrорovna</b>	
Menejmentda ishbilarmonlik kommunikatsiyalaridan foydalanishda optimal strategiyalarini qo'llash shart-sharoitlari.....	227
<b>Narzullayeva Gulchehra Salimovna, Shadiyeva Madina Djaloliddin qizi</b>	
Raqamlashtirish sharoitida innovatsion faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari .....	231
<b>Nazarova Latofat Toirjon qizi</b>	
O'zbekistonda masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	235
<b>Nurmuxammedov Matlab Yunusovich</b>	



Davlat aktivlarini samarali boshqarish hamda nazorat qilishni takomillashtirish.....	240
Mirzayev O., Nazarov G'ayrat Olim o'g'li	
Talabalarning oilali bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarga iqtisodiy baholashda yangicha yondashuv.....	246
O. U. Shomurodov, Z. U. Uroqov, A. T. Ablahatov, A. A. Suyarov, J. S. Urazov	
Methodological Aspects for Branding in Private Schools.....	251
Odilova Sitora Sayfitdin qizi	
Совершенствование процедуры оценки эффективности и результативности расходов государственного сектора.....	256
Олимов Элёр Фазлиддин угули, Искандаров Суннатилло Баҳриддин угули	
Logistika xizmatlari samaradorligini oshirishda blokcheyn texnologiyalardan foydalanish .....	261
Rajabov Orzujon Mamasoliyevich	
Markaziy Osiyoda energetika bozorini rivojlantirishning kelgusi istiqboli va imkoniyatlari.....	267
Saidov Mash'al Samadovich, Umarova Irodaxon Nuraliyevna	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda sug'urta bozorining innovatsion usullaridan foydalanishning konseptual asoslari .....	275
Narzullayeva Gulchehra Salimovna, Saidova Dilnozaxon Odiljon qizi	
Oliy ta'lilda boshqaruvin strategiyalari va ularni amalga oshirish mexanizmi.....	279
Saidqulova Firuza Farmonovna	
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromadlarini soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari .....	283
Salimov Sherzod Baxtiyorovich	
O'zbekiston Respublikasidagi mavjud suv resurslarining iqtisodiy holati tahlili .....	288
Shanazarova Gulyora Baxtiyarovna	
Tijorat banklari kredit risklarini kamaytirish yo'llari.....	294
Tulkinova Maftuna Anvarbek qizi	
The use of Intellectual Systems in the Improvement of the Educational Process Management System in Higher Educational Institutions .....	303
Umarova Dilfuza Rakhmatilla qizi	
Oliy ta'lim tizimida yangi iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish.....	307
Xakimov Dilshodjon Rahmonaliyevich	
Global iqtisodiy sharoitida moliyaviy hisobotlar auditida muhimlilikni baholashni xalqaro stanadartlar asosida takomillashtirish.....	311
Xasanova Nasiba Tolliboy qizi	
Qurilish materiallari sanoatida innovatsion klasterlarni tashkil etish istiqbollari.....	314
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
Oliy ta'lim muassasalarida gibrildi bulut xizmat modelini qo'llash mexanizmini ishlab chiqish .....	319
Zaripov Bahodir Bobomurod o'g'li	
Роль инвестиций в системе железнодорожного транспорта в Республике Узбекистан .....	325
Акбарова Лайло Упашевна	
Gidrotexnik inshootlar betonlarini samaradorligini tahlil qilish va oshirish natijalari .....	330
Asqarov B. A., Karimov M. U., Xolmirzayev S.T., Obidjonov J. T.	
Maxsus iqtisodiy zonalar hududiga jalb etilgan investitsiyalar to'g'risida .....	334
Davlayev G'olib Ashurovich	
Yangi xizmat turi xizmatlar sohasini innovatsion boshqarishning metodologiyasi .....	337
Djurayeva Dilnoza Davron qizi	
Mintaqalar innovatsion salohiyatini baholashning uslubiy yondashuvlari.....	343
J. A. Ismatullayev, D. X. O'rino	
Milliy qayta sug'urtalovchilarning xalqaro sug'urta bozoriga kirib borishi va kutilayotgan xavf-xatarlar .....	348
Jorabayev Jasur Abduraxmanovich	



Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tovarlar auditni natijalarini auditorlik hisobotida aks ettirish tartibi .....	354
Ibragimov M. M., Ergashev O. F.	
Turistik destinatsiyalarni tashkil etish va rivojlantirishning xorijiy tajribalari .....	358
Karimov Anvar Aktam o'g'li	
Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash va undirish samaradorligini oshirish yo'llari.....	362
Qurbanov Muxiddin Abdullayevich	
Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional tizimini tadqiq etishga uslubiy yondashuvlar.....	367
Mamatov Axmetjon Atajanovich, Allaberganov Zakir Gayibovich	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlari .....	373
Mamatov Mamajan Axmadijonovich	
Paxta-to'qimachilik klasterlari eksport faoliyatini rivojlantirishning xorij tajribasi.....	380
Mansurov Saidxo'ja Kamalovich	
Korxonalar raqobatbardoshligini oshirish muammolari va dolzarb vazifalari .....	386
Musyeva Shoira Azimovna	
Устойчивый и инклюзивный рост: взаимосвязь экономического прогресса с социальным равенством и экологическим управлением .....	390
Нодирбек Холбаев	
Mintaqalarni investitsion jozibadorligini taraqqiyot strategiyasiga ta'sirini statistik baholash.....	396
Nuriddinov Zufar Akbarovich	
Финансирование каракулеводства: преодоление финансовых вызовов в пустынных регионах Узбекистана .....	402
Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич	
O'zbekiston investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish.....	408
Oybek Elmuratov	
Intellektual mulkning iqtisodiy mazmuni va tarixiy rivojlanish bosqichlari.....	411
Maxmudova Nargiza Davlyat qizi	
Implementation and use of Digital Technologies in Logistics Abstract.....	416
Kushakova Mamura, Koshakova Mukhlisa Surat qizi	
Innovatsion iqtisodiyot tushunchasining mazmun mohiyati .....	421
Abduqaxorov Bekzod O'tkir o'g'li	
Raqamlashtirish iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshligini oshirish omili sifatida.....	426
Mamajonova Durdonahon Mamaruzi qizi	
O'zbekistonda tashqi savdoni notarif usullar orqali tartibga solishning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri.....	431
Norqobilov Akobir Iso o'g'li	
Инновационные методы переработки горных отходов для экологической устойчивости в Узбекистане .....	437
Аскаров Бахтиер Аскарович, Собирова Мукаддас Хамидуллаева	
Опыт зарубежных стран по стимулированию производства сельскохозяйственной продукции и перспективы внедрения в Узбекистан.....	442
Холиков Сулаймон Уткир угли	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarda strategik boshqaruv hisobini tashkil qilishning uslubiy jihatlari.....	447
Pardayeva Shahnoza Abdinabiyeva	
O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni statistik tahlili.....	452
Sayfullayev Siddik Nosirovich	
Sug'urta tashkilotining innovatsion risklarini baholash.....	457
Sattorov Shoxrux Maxmudjon o'g'li	



Kapital bozori rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari .....	462
Turdiyeva Uzayda Omirbayevna	
Aadaptivnyi iskussstvennyi intellekt v upravlenii chelovecheskimi resursami.....	469
Xайдарова Малика Шоирджановна	
Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mablag'lardan samarali foydalanishga xizmat qiluvchi zamonaviy va istiqbolga mo'ljalangan huquqiy asoslarning yaratilganligi to'g'risida.....	478
Xayriddinov Shuxrat Botirovich	
Investitsiya loyihalariiga ta'sir qiluvchi risklarni sifat jihatdan baholash usullarining o'ziga xos xususiyatlari ....	482
Shaislamova Nargiza Kabilovna	
Tijorat banklari tomonidan investitsion loyihalarni kreditlash tartib va ularni takomillashtirish yo'llari .....	491
Yunusova Ozoda Anvarjon qizi	
Hududlar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda soliq salohiyatini oshirishning nazariy jihatlari .....	498
E. N. Raximov	
Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzishning zarurligi.....	504
Avazov Ilhom Ravshanovich	
Inson resurslarini boshqarishning innovatsion usullarini joriy etish vositalarini ishlab chiqish.....	509
Djuraeva Guzal Shavkatovna	
Agrar soha korxonalarining moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	513
Erkinxojiyev Ismoiljon Ikromjon o'g'li	
Korporativ qimmatli qog'ozlar asosida korxonalarни moliyalashtirishning ilg'or xorij tajribalari.....	517
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
The impact of corporate governance on firm performance and financial stability .....	524
Muhammadyor Yunusov	
Mintaqalarda kamg'allik darajasini pasaytirish va xorij tajribasidan foydalanish yo'llari.....	537
Musulmonova Shahlo Nasriddinovna	
Makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash soliq ma'muriyatçiligin samarali tashkil etish yo'llari .....	541
Mutalova Dilorom Maxamadjanovna, Kenjaboyeva Nigina	
Iqtisodiy savodxonlik hamda tadbirkorlik qobiliyati o'rtasidagi to'g'ri nisbatdagi bog'liqlik munosabatining fundamental asoslari.....	544
Tuxtayeva Muyassar Shovkat qizi	
Korxonalarning bankrotlik riskini baholashning xalqaro modellari.....	550
Umarova Hulkar Umidulloevna	
O'zbekistonda korxona boshqaruvida kadrlar salohiyatidan foydalanish amaliyotini rivojlantirishning xorij tajribasi .....	555
Do'stova Aziza Qahramonovna	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida boshqaruv tizimining xususiyatlari.....	559
Iroda Majidova	
Ziyorat turizmini rivojlantirishning muhim xususiyatlari .....	565
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Shukurov Tohirjon Izzatullo o'g'li	
Qandolat mahsulotlari bozorida marketing tadqiqotlarini asosiy yo'nalishlari .....	569
Tuychiyeva Vasila Faxriddin qizi	
"Зелёная экономика" как фактор повышения экономического роста страны.....	573
Тураева Адиба Икрамовна	
Oilada sarf-xarajatlar samarasiga erishishning muhimligi.....	580
Xasanov Rustam Rabimovich	
Aholi farovonlik darajasidagi farqlarni tartiblash yo'nalishlari.....	583
Xasanov Rustam Rabimovich, Turdiyev Zoxidjon Rustamovich	



Совершенствование оценки стоимости объектов недвижимости в Узбекистане на основе зарубежного опыта.....	588
Хомитов К. З., Халилова Л. Ш.	
Mamlakatimizda qishloq xo'jaligida kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishda xorij tajribalaridan foydalanishning ahamiyati.....	594
Choriyeva Nigina Kaxramonovna	
Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish yo'llari .....	598
Alimbayeva Sevara Alimbayeva	
Yengil sanoatni rivojlanishida Germaniya tajribasi.....	601
F. Jumaniyazova, G'ułomov Ibroxim Rustam o'g'li	
The efficiency of usage of Islamic finance instruments in security market.....	607
Khasanov Umarbek Begmat ugli	
Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalanishning xorijiy tajribalari va ulardan foydalanish yo'llari.....	613
Mamasoatoev Dilshod Ravshanovich	
O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini tashkil qilinishining hozirgi holati va muammolari .....	621
Nutfulloev Tolib G'olib o'g'li	
Mehnat bozorida raqamli texnologiyalardan foydalanish metodologiyasini takomillashtirish .....	627
Maxammadiyev M. M.	
Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish sharoitida mahsulot tannarxini optimallashtirish asoslari.....	632
Narzullayeva Gulchehra Salimovna	
Elektron pullarni rivojlanirish yo'llari .....	636
Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Egamberganov Mirzabek Odilbek o'g'li	
Zagryaznenie okruжающей среды в Узбекистане: проблемы, причины и пути решения .....	644
Ишонкулова Феруза Асатовна, Шукров Тимур Умидович	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarini transformatsiyalash modeli orqali takomillashtirish .....	649
Norov Akmal Ruzimamatovich, Norova Nozima Nabiyevna	
Land Tax Received From Individuals and its Share in the Budget of the Republic of Uzbekistan .....	656
Hakimov Feruz Khurshid ugli	
O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyot va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xarajatlar tahlili.....	659
Isaxonova Ruxshona Muzaffar qizi, Sharapova Mashxura Azadovna	
Qurilish xizmatlari ma'lumotlar tizimini takomillashtirish imkoniyatlari .....	665
Nurfayziyev Zayniddin Boymurodovich, Nurfayziyev Elyor Zayniddinovich	
Ipotekali kreditlashni rivojlanirishning xorijiy davlatlar tajribasi va uni O'zbekistonda tatbiq etish yo'llari .....	670
Turdiev Shaxriddin Erxonovich	
Suv resurslaridan foydalanishda xorij tajribalari .....	675
Berdiyev Anvar Abdivaliyevich	
Auditda yetarli va mos dalillarni to'plash tartibi .....	681
Meliyev Isroil Ismoilovich	
"Yashil" iqtisodiyot konsepsiyasining shakllanishi va rivojlanishi .....	686
Urumbayev Saparbek Samatovich	
Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari .....	692
Xolmuradov Raxmatilla Ne'matillaevich	
O'zbekiston mahsulotlarining tashqi bozordagi raqobatbardoshligi xususiyatlari va onlayn platformalar .....	699
Baymuradov Shoxrux Maxmudovich	
Factors affecting investment attractiveness in the global investment landscape.....	704
Otaboev Akhmed Makhsubbek o'g'li, Juliana Juliana, Fazliddin Nasreddinov	



Xalqaro migrantsiyaning O'zbekiston mehnat bozori va inson kapitaliga ta'siri.....	709
Tilabova Kumush Farhod qizi	
ANALIZ I OZENKA EESTSTVENNOGO OSVEЩENIJA POMEЩENIIJ OBRAZOVATEL'NYX UCHREЖDENIJ.....	714
Pirmuhamedova Shaxniza	
Aktyualnye voprosy ukrpleniya doveriya naselenija k bankovskoj sisteme Respubliki Uzbekistan....	719
Ruziboeva Nilufar Tulkin kizi	
Metodicheskie podkhody k formirovaniyu mechanizmov strategicheskogo upravleniya razvitiem khimicheskoy otрасli.....	725
Bibutova Shaхlo Sa'ydullaeva	
Iqtisodiyotni rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etishning afzalliklari va muammolari .....	730
Axmedova Dilbar Buronovna	
Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirishda sog'lijni saqlash muassasalarini moliyalashtirishning mohiyati.....	734
Ishmanova Diana Nurmamadovna	
Oziq-ovqat sanoatini tashkiliy-iqtisodiy jihatdan rivojlanti-rishning nazariy asoslari .....	737
Muxtorova Madina Azamat qizi	
Ipoteka kreditlari sohasidagi islohotlar va kelajakdagi istiqbollar .....	741
A'zamxo'jayeva Nihola Sulaymon qizi	
Sanoat ishlab chiqarish tizimining investitsion xususiyatlari .....	746
Yodgorova Xalima To'lqinovna	
Budjet ijrosini samarali ta'minlashda davlat xaridlarining ahamiyati.....	752
Sholdarov Dilshod Azimiddin o'g'li, Fayzullayeva Zilola Ravshanovna	
Aholi sog'ligi – milliy boylikning tarkibi va jamiat taraqqiyotining muhim shartidir.....	763
Djumabayeva Shaira Xalillayevna	
Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari: hisob siyosati.....	769
Rizayev Nurbek Kodirovich, Mamatova Charos Shavkiddinovna	
Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsion muhitning o'rni .....	778
Valiyeva Sayyora Xushbaqovna	
Davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ ijtimoiy mas'uliyat ("Rossiya temir yo'llari" OAJ misolida).....	784
Xidirova Marg'uba Rustamovna, Saidqulov Avazbek Botirqul o'g'li	
Raqamli transformatsiyaning O'zbekistonning investitsion jozibadorligiga ta'siri .....	790
Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li, Markabayeva Jansaya Aybek qizi	



# "YASHIL" IQTISODIYOT KONSEPSIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

**Urunbayev Saparbek Samatovich**

Tashkent arxitektura-qurilish universiteti

**Annotatsiya:** Maqolada tabiiy kapitalni jamg'arish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy jarayonlar, "yashil" iqtisodiyot modellari va tamoyillari, iqtisodiy va ekologik muammolar, "yashil" binolar, "yashil" qurilish, "yashil" qurilish strategiyalari, yashil energiya va ularning samaradorligi tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** Iqtisodiy barqarorlik, "yashil" binolar, "yashil" qurilish, iqlim o'zgarishi, "yashil" qurilish strategiya, energiya, samaradorlik.

**Abstract:** The article discusses the economic processes associated with the accumulation of natural capital, models and principles of the green economy, economic and environmental problems, green buildings, green construction, green construction strategies, green energy and their effectiveness.

**Key words:** Economic stability, green buildings, green building, climate change, green building strategy, energy, efficiency.

**Аннотация:** В статье рассматриваются экономические процессы, связанные с накоплением природного капитала, модели и принципы зеленой экономики, экономические и экологические проблемы, зеленые здания, зеленое строительство, стратегии зеленого строительства, зеленая энергетика и их эффективность.

**Ключевые слова:** Экономическая стабильность, зеленые здания, зеленое строительство, изменение климата, стратегия зеленого строительства, энергетика, эффективность.

## KIRISH

Jahonda energetik va ekologik inqirozlarning sabablari ko'p yillarda davomida tabiiy resurslardan ekstensiv va mantiqsiz foydalanish bilan bog'liq. Natijada, kelajak-avlodlar oldida yashirin ekologik qarz to'xtovsiz o'sib bormoqda. Mazkur ekologik qarz milliy iqtisodiyotni rivojlanishining moliyaviy paketlari va boshqa rejallarda to'liq hisobga olinmoqda. Bu esa tabiiy kapitalni jamg'arish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy rivojlanish modellarini talab etmoqda.

Shu bois, iqtisodiy va ekologik muammolarning o'zaro bog'liqligiga asoslangan "yashil" iqtisodiyot tamoyillaridan keng foydalanish dolzarblashib bormoqda. Bu yerda muammo shundaki, "yashil" iqtisodiyot iste'mol va ishlab chiqarishning amaldagi modelini cheklovchi mexanizmga aylanishi mumkin. Chunki bugungi kunga qadar "yashil" iqtisodiyot tamoyillarining mavjud iqtisodiy tizimga muvofiqligi muammolari to'liq hal qilinmagan.

Jumladan, ko'pgina mamlakatlarning sanoat rivojlanishi asosan tabiiy kapitaldan intensiv foydalanishga asoslangan. Sanoat inqilobi sayyoramiz aholisining farovonligini oshirishga olib keldi. Biroq, so'nggi yillardagi tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, sanoat ishlab chiqarishining jadal rivojlanishi tabiiy kapitalga bo'lgan talabni keskin oshirib yubormoqda, atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda va tabiiy resurslarning kamayishiga olib kelmoqda. Bu esa ekotizimlarning degradatsiyasi (yo'q qilinishi), ijtimoiy keskinlik, oziq-ovqat xavfsizligi va inson salomatligiga tahidilar kabi muammolarning paydo bo'lismiga olib kelmoqda. Kelajak-avlod uchun "Yashil" iqtisodiyot modelni shakllantirish zarurati paydo bo'ldi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

"Yashil" iqtisodiyot" atamasining shakllanishi tabiiy resurslarning cheklanganligi, takror ishlab chiqarilmasligi va bu insoniyatning barcha faoliyat yo'nalishlariga jiddiy ta'sir ko'rsatishi bilan bog'liq muammolarga asoslangan. Ushbu muammoni ilmiy jihatdan o'rganish XX asrning 60-70-yillarda ommalasha boshladi. Bu davorda ilmiy adabiyotlarda "Atrof-muhit iqtisodiyoti", deb nomlangan yangi yo'nalish paydo bo'ldi. Ushbu yo'nalish doirasida iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga ta'siri natijasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy oq-



batlarni talqin etish boshlandi. Bunda ekologik muammolarni amaldagi iqtisodiy munosabatlar doirasida hal etish va xalqaro darajada umumlashtirish talab qilindi [1].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, "yashil" iqtisodiyot konsepsiyasining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari 4 ta davrga bo'lish mumkin. Birinchi bosqich 1950–1960-yillar o'z ichiga oladi va iqtisodiyotning atrof-muhit va insonga salbiy ta'sirini anglab yetish davri hisoblanadi. 1960–1970-yillarni qamrab olgan ikkinchi bosqichda tabiiy resurslardan intensiv foydalanish va atrof-muhitni ifloslantrish iqtisodiyotning moddiy bazasini izdan chiqarishi va inson turmush farovonligining pasayishiga olib kelishi to'g'risidagi babs-munozalar kuchaydi. Uchinchi bosqichda (1980–1990-yillar) rivojlangan mamlakatlarda "yashil" texnologiyalar va ekologik modernizatsiya g'oyasi ilgari surildi va shu asosda barqaror rivojlanish konsepsiysi shakllana boshladи. To'rtinchи bosqichda (2000–2010-yillar) erkin bozor tabiiy resurslarini saqlab qolish va ijtimoiy adolat manfaatlarini himoya qilish, uzoq muddatli davrda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash nuqtayi nazaridan o'zini o'zi tartibga solishga qodir emasligi g'oyasi ilgari surildi (1.1-rasmga qarang).



1.1-rasm: " "Yashil" iqtisodiyot" konsepsiyasining rivojlanish bosqichlari [2]

Keyingi yillarda ham "yashil" iqtisodiyot konsepsiyasini boyitish ishlari amalga oshirilib kelinmoqda. 2011-yilda UNEP tomonidan takomillashgan ta'rif ishlab chiqildi: "yashil" iqtisodiyot – kam uglerodli rivojlanishga asoslangan resurslarni tejayidigan iqtisodiyot bo'lib, inson farovonligi va ijtimoiy adolatni ta'minlaydi, ekologik xavflarni sezilarli darajada kamaytiradi va biologik xilma-xillilikni yo'qolib ketishini oldini oladi [3].

Xorijiy mamlakatlarda iqtisodchi olimlar tomonidan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. N.Noruzi fikricha, "yashil" iqtisodiyot daromadlarni oshirishga, "yashil ish o'rinalarini" yaratishga yordam beradigan model bo'lib, tabiiy kapitalni hisobga olish bilan o'lchanadigan iqtisodiy taraqqiyot va ekologik barqarorlik o'tasidagi o'zarо ta'sirni rivojlantirishga intiladi [4]. L.Chjan, M.Suyu, X.CHen va boshqalar tomonidan quyidagicha ta'rif berilgan: "yashil" iqtisodiyot – bu iqtisodiy o'sishni, odamlarning kundalik hayoti va atrof-muhitni, uzoq muddatli farovonlikni rag'batlantirishga intiladigan rivojlanish va taraqqiyotning yangi strategiyasidir [5].

M.Xorning fikricha, "yashil" iqtisodiyot ko'plab subyektlarga (davlat idoralari, iqtisodchilar, ekologlar va boshqalar) ta'sir qiladigan murakkab tushuncha bo'lib, "yashil" iqtisodiyot tamoyillarini qisqa muddatlarda amalga oshirib bo'lmaydi. Shuningdek, "yashil" iqtisodiyotni tabiiy resurslarni tejash, ifloslanish va chiqindilarni minimallashtirishga asoslangan, iste'mol va mahsulot ishlab chiqarishning atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan iqtisodiyot, deb ta'riflaydi [6].

L.Dogaru "yashil" iqtisodiyotga barqaror rivojlanish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash, mayjud bo'lgan salbiy ko'rinishlarni minimallashtirish uchun asosiy yordamchi bo'lgan davlat boshqaruvi va biznes jarayonlari bilan bog'liq iqtisodiy tizim sifatida ta'rif beradi [7]. D.Damato va J.Korxonenlarlarning fikricha, "yashil" iqtisodiyot – bu insonlarning faoliyatida barqarorlikni saqlash (barqarorlikni ta'minlash uchun kerak bo'lgan ko'kalamzorlashtirish) sharti bilan tabiiy ekotizimlardan foydalanish imkoniyatini oshirishdir [8].



Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlari ham "yashil" iqtisodiyot konsepsiyasini rivojlantrishga o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar. M.N.Dudin, S.O.Kalendjyan va N.V.Lyasnikovlarning ta'rifiga ko'ra, "yashil" iqtisodiyot – uzoq muddatli istiqbolda ijobji ta'sir ko'rsatadigan dekarbonizatsiyalangan ekologik iqtisodiyotga o'tishdir [9]. Mazkur ta'rifning ma'nosiga e'tibor bersak, "yashil" iqtisodiyotda xavfsiz va ekologik mahsulot ishlab chiqarish dekarbonizatsiya kabi asosiy xususiyatlarga ega bo'lishi va shu asosda shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash lozim. Bu Yerda "dekarbonizatsiya" so'zidan sanoat ishlab chiqarishida uglerodni kamaytirish va iqlim o'zgarishlarini sekinlashtirishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar majmui sifatida foydalanilgan.

A.V. Xodchenko fikricha, "yashil" iqtisodiyot milliy iqtisodiyotning bir tarmog'i hisoblanadi, bunda iqtisodiyot atrof-muhitga nisbatan bo'y sunuvchi pozitsiyada bo'ladi, ishlab chiqarish tsikli (ilg'or texnologiyalarni joriy etish) tabiiy resurslardan samarali foydalanish va umumiylar farovonlik maqsadini belgilaydi [10]. M.S.Yegorovaning fikricha, "yashil" iqtisodiyot – bu tabiiy resurslardan samarali foydalanish orqali jamiyat farovonligini saqlashga, shuningdek, foydalanilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish tsikliga qaytarishni ta'minlashga qaratilgan iqtisodiyotdir [11].

O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyot konsepsiysi tabiiy muvozanatni saqlash bilan bevosita bog'liq bo'lib, ko'plab o'xshash tushunchalarni kuzatish mumkin. Jumladan, A.V.Vaxabovning fikricha, " "Yashil" iqtisodiyot" ga o'tish jarayoni har bir mamlakat uchun alohida ahamiyat kasb etib, tabiiy kapital, inson kapitali va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi kabi xususiyatlarga bevosita bog'liq holda sodir bo'ladi.

M.T.Asqarova, J.J.Jamolov va X.S.Xadjayevlarning fikricha, "yashil" iqtisodiyot barqaror rivojlanish o'rnnini bosa olmaydi va barqaror rivojlanishga erishishga xizmat qiluvchi muhim mezon hisoblanadi. D.SH.Yavmutov bu borada quyidagilarni ta'kidlaydi: aksariyat tabiiy resurslarning yaqin kelajakda qayta tiklanmas darajada tugashi hududlarda " "Yashil" iqtisodiyot" tamoyillari asosida barqaror rivojlanishga o'tishni talab qiladi.

E.A.Muminova fikricha, "yashil" iqtisodiyotning oqibat natijasi – qashshoqlikka barham berish, tenglikka erishish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish bilan birga, ivesitsiyalarni jalb qilish, yangi ish o'rinalarini yaratish va yangi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini oshirish hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida mavzuga oid mantiqiy taqqoslash, umumlashtirish, ilmiy mushohada, tizimli yondashuv, statistik hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Shuningdek, "yashil" iqtisodiyot konsepsiyasining shakllanishi va rivojlanishida turli omillarning ta'sirini baholashda korrelatsion va regression usullardan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Xorijiy mamlakatlarda amalga oshirilgan tadqiqotlarni umumlashtirgan holda ta'kidlash mumkinki, tabiiy resurslarning kamayib borishining ekologiyaga ta'siri va atrof-muhitni boshqarishning iqtisodiy foydasi "yashil" iqtisodiyot konsepsiyasining keng tarqalgan namunasidir. Bunda ekologik muammolarni yumshatish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, yashil texnologiyalarni rivojlantrish uchun iqtisodiy tuzilmaning roliga alohida e'tibor berilgan. Shuningdek, "yashil" iqtisodiyotga o'tish insonlarni xavfsizligini oshirishga, sog'lom va xavfsiz muhitni shakllanishiga, oziq-ovqat va yer-suv resurslar bilan bog'liq nizolarni oldini olishga va qashshoqlikni kamaytirishga yordam beradi, degan xulosaga kelingan.

MDH mamlakatlarda ishlab chiqilgan konsepsiya turli xil yondashuvlardan iborat va shu asosda "yashil" iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirishni qiyinlashtiradi. "yashil" iqtisodiyotning turli xil ta'riflarini hisobga olgan holda, "tarmoq" va "natija" yondashuvlariga ajratish mumkin. Tarmoq yondashuvida atrof-muhitga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan ilg'or texnika va texnologiyalardan foydalanish bilan tavsiflangan iqtisodiy sohalar majmui hisobga olingan. Natija yondashuvida ishlab chiqarish va iste'molning ekologik xususiyatlarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ochib berilgan. Bunda asosiy e'tibor innovatsion mahsulotlar orqali korxonalar, tarmoqlar, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarda ijobji ekologik natijalarni olishga va boshqa transformatsion jarayonlarga qaratilgan.

Shuningdek, "yashil" iqtisodiyot koalitsiyasi (The Green Economy Tracker), Xalqaro savdo palatasi (International Chamber of Commerce), "Group 92" nodavlat tashkiloti (Forum for Bæredygtig Udvikling), BMTrning Barqaror rivojlanish bo'limi (Division for Sustainable Development – UNDESA), Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (European Bank for Reconstruction and Development – EBRD), Xalqaro savdo va barqaror rivojlanish markazi (International Centre for Trade and Sustainable Development – ICTSD), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Co-operation and Development – OECD) va boshqa kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan "yashil" iqtisodiyot tushunchasini takomillashtirishga qaratilgan yondashuvlarni kuzatish mumkin (1.1.-jadvalga qarang).



**1.1-jadval:** "yashil" iqtisodiyot tushunchasini takomillashtirishga qaratilgan yondashuvlar

Tashkilotlar	Ta'rif
UNEP	kam uglerodli rivojlanishga asoslangan resurslarni tejaydigan iqtisodiyot bo'lib, inson farovonligi va ijtimoiy adolatni ta'minlaydi, ekologik xavflarni sezilarli darajada kamaytiradi va biologik xilmashilikni yo'qolib ketishini oldini oladi
"Yashil" iqtisodiyot koalitsiyasi	atrof-muhit chekllovleri doirasidagi har bir inson uchun hayot sifatini ta'minlaydigan barqaror iqtisodiyot
Xalqaro savdo palatasi	iqtisodiy o'sish va ekologik mas'uliyat bir-birini o'zaro mustahkamlaydigan, taraqqiyot va ijtimoiy rivojlanishi qo'llab-quvvatlaydigan iqtisodiyot
"Group 92" nodavlat tashkiloti	iqtisodiyotning tizimli buzilishlarini bartaraf etadigan, inson farovonligiga va barcha imkoniyatlardan teng foydalanishga olib keladigan, atrof-muhit bilan iqtisodiy yaxlitlikni ta'minlaydigan doimiy taraqqiyot jarayoni
BMT Barqaror rivojlanish bo'limi	bir vaqtning o'zida iqtisodiy va ekologik maqsadlarni olg'a surishga qaratilgan imkoniyatlardan foydalanish tizimi
Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki	iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga ta'sirini minimallashtirish maqsadida davlat va xususiy investitsiyalar jalb etiladigan, ekotizimlar holatini muntazam nazorat qilinadigan, mavjud xavflarni boshqarish va innovatsiyalarni rag'batlantirishga qaratilgan siyosat orqali bozor muammolarini bartaraf etadigan iqtisodiyot
Xalqaro savdo va barqaror rivojlanish markazi	tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat majmui bo'lib, bu uzoq muddatda inson farovonligining oshishiga olib keladi, shu bilan birga kelajak avlodlarni muhim ekologik xavflarga yoki atrof-muhit tanqisligiga duchor qilmaydi
OECD	barqaror rivojlanish va qashshoqlikni yo'q qilishga hissa qo'shadigan, ekologik ahamiyatga ega sohalarga investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha chora-tadbirlar majmuini birlashtirgan konsepsiya

Butunjahon "yashil" iqtisodiyot tashkiloti (World Green Economy Organization – WGEO) tomonidan o'tka-zilayotgan xalqaro sammit va konferentsiyalarda "yashil" iqtisodiyotga berilgan ta'riflar takomillashib bormoqda. 2000-yilda BMTning Ming yillik va 2006 yilda "Rio+10" Barqaror rivojlanish, 2020-yilda "Maslahat" (Technology Innovation Pioneers – TIP) sammitlari, 2012 "Rio+20", 2015 yilda "Parij kelishuvi", 2016-yilda "Kioto protokoli", 2020-yilda Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mintaqasi (Middle East and North Africa's – MENA) konferentsiyalarini va boshqalar shular jumlasidandir.

Bundan tashqari, alohida mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha ham "yashil" iqtisodiyotga berilgan ta'riflar mavjud. Jumladan, Belorus Respublikasida 2020-yilgacha "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha Milliy harakatlar rejasida "Yashil" iqtisodiyot – bu ekologik xavflarni va atrof-muhitning buzilish tezligini sezilarli darajada kamaytirish bilan birga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga erishishga qaratilgan iqtisodiy tashkilot modelidir", deb ta'kidlangan. BMTning Osiyo va Tinch okeani uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi tomonidan "yashil" iqtisodiyot atamasiga "Osiyo-Tinch okeani mintaqasi uchun kam uglerod chiqindilari, shu jumladan ijtimoiy rivojlanish bilan ekologik barqaror iqtisodiy taraqqiyotqa qaratilgan siyosat yo'nalishidir", deb ta'rif berilgan.

Umuman olganda, "yashil" iqtisodiyot konsepsiysi iqtisodiyot va tabiat bilan bog'liq tushunchalarni uyg'unlashtirishga intildi. "yashil" iqtisodiyot konsepsiyasinin shakllanishi va rivojlanishida turli xil ilmiy yondashuvlarni kuzatiladi. Bu esa jahonda va mamlakatimizda olib borilayotgan tadqiqot natijalarini umumlashtirish va guruhlashni talab etadi. Mazkur yondashuvlarni iqtisodiy, tarmoq, texnologik, tsivilizatsiyali, axloqiy va ekologik kabi sohalarga ajratish mumkin. Jumladan, iqtisodiy yondashuvda "yashil" iqtisodiyotni yangi ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida qabul qilinadi va insonlar hayotining barcha jabhalarini qamrab oladigan munosabatlarga o'tishni talab qiladi. Tarmoq yondashuvida esa ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki "yashil" iqtisodiyot tamoyillar bo'yicha ayrim tarmoqlarni rivojlantirishni nazarda tutadi (1.2-jadvalqa qarang).



1.2-jadval: "yashil" iqtisodiyot konsepsiyasining shakllanishi va rivojlanishiga qaratilgan yondashuvlarning guruhlanishi<sup>1</sup>

Yondashuv sohasi	Umumiy tavsifi
Iqtisodiy	"Yashil" iqtisodiyotni yangi ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida qabul qilinadi va insonlar hayotining barcha jabhalarini qamrab oladigan munosabatlarga o'tishni talab qiladi
Tarmoq	ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki "yashil" iqtisodiyot tamoyillar bo'yicha ayrim tarmoqlarni rivojlantirish
Texnologik	barcha tarmoqlarning ekologik toza sanoat va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni ta'minlaydigan texnologiyalarga o'tishi
Tsivilizatsiyali	insonlarning umumiyligi va kasbiy madaniyatining o'sishini hisobga olgan holda iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichiga o'tish, ekologik toza muhitni yaratish va jamiyatning barcha sohalarda yashil texnologiyalarni qo'llash
Axloqiy va ekologik	qashshoqlik muammosini bartaraf etish va tabiatni muhofaza qilish bilan bog'liq ekologik harakat

Yuqorida tahlillarni umumlashtirgan va to'ldirgan holda "yashil" iqtisodiyotga quyidagicha ta'rif berish mumkin. "yashil" iqtisodiyot – bugungi kunda tabiatga Yetkazilayotgan zararlarni bartaraf etish bilan bog'liq tizimning tarkibiy qismlarini ishlab chiqarish omillarida namoyon bo'lishidir.

## XULOSA

"Yashil" iqtisodiyot konsepsiysi barqarorlik va tabiiy resurslarni saqlashga qaratilgan zamonaviy jahon taraqqiyotining muhim omilidir.

Birinchidan, "yashil" iqtisodiyotni shakllantirish energiya tejamkor texnologiyalardan foydalanishga o'tishni, atmosferaga va suv resurslariga zararli moddalar chiqarilishini kamaytirishni, shuningdek, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishni nazarda tutadi.

"Yashil" iqtisodiyotni shakllantirish energiya tejamkor texnologiyalar, ya'ni quyosh, shamol va gidroenergetika kabi qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish va rivojlantirish, shuningdek, sanoat, transport va uy-joy qurilishida energiya samaradorligini oshirish kiradi.

Atmosfera va suv resurslariga zararli moddalar chiqarilishini kamaytirish ham "yashil" iqtisodiyotning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Bunga toza texnologiyalar va jarayonlarni joriy etish, shuningdek, suv va havo tizimlarining chiqindilari va ifloslanishini qat'iy nazorat qilish orqali erishiladi.

"Yashil" iqtisodiyotda tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish ham muhim o'r'in tutadi. Bu suv, o'rmon, mineral resurslar va hatto qishloq xo'jaligi uchun Yer kabi tabiiy resurslardan ehtiyojkorlik bilan va barqaror foydalanishni anglatadi. Bunga resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va ularning sarfini kamaytirishga qaratilgan texnologiyalar va usullarni joriy etish orqali erishish mumkin.

Ikkinchidan, "yashil" iqtisodiyot toza texnologiyalar va infratuzilmada innovatsiyalarni rag'batlantirishga yordam beradi, bu esa o'z navbatida yangi ish o'rinalarini yaratish va iqtisodiyotni rivojlantirishga yordam beradi.

Yashil texnologiya innovatsiyalari energiya tejaydigan qurilmalarni ishlab chiqish va joriy etish, chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish, ekologik toza materiallarni ishlab chiqish va boshqa ko'plab jihatlarni o'z ichiga oladi. Ushbu innovatsiyalar nafaqat bizning atrof-muhitga ta'sirimizni kamaytirishga yordam beradi, balki yangi bozorlar va biznes imkoniyatlarini ham yaratadi.

Bundan tashqari, "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish yashil texnologiyalar sektori va unga aloqador tarmoqlarda yangi ish o'rinalarini yaratishga xizmat qilmoqda. Bu yashil texnologiyalar va infratuzilmani loyihalash, ishlab chiqarish, o'rnatish, texnik xizmat ko'rsatish va boshqarish bo'yicha ishlarni o'z ichiga oladi.

Uchinchidan, ushbu konsepsiya kelajak avlodlar uchun tabiiy resurslarni saqlab qolishning asosiy elementi bo'lgan barqarorlik va ekologik javobgarlikka nisbatan iste'mol va ishlab chiqarish modellarini qayta ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi.

Fikrimizcha, "yashil" iqtisodiyot konsepsiyasining muhim jihatni iste'mol va ishlab chiqarish modellarini barqarorlik va ekologik javobgarlikka qarab qayta ko'rib chiqishdir. Ushbu qayta ko'rib chiqish kelajak avlodlar uchun ularni saqlashni ta'minlash uchun resurslarni iste'mol qilishga munosabatni o'zgartirishni o'z ichiga oladi.

<sup>1</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



Iste'mol usullarini qayta ko'rib chiqish resurslardan ongлиroq va mas'uliyatli foydalanishni o'z ichiga oladi. Bu atrof-muhitga zarar Yetkazuvchi tovarlar va xizmatlar iste'molini kamaytirish, shuningdek, ekologik toza alternativlarni tanlashni anglatadi.

Iste'mol va ishlab chiqarish usullarini qayta ko'rib chiqish tabiiy resurslarni kelajak avlodlar uchun saqlashning kalitidir. Bugungi kunda resurslardan barqaror foydalanish va ularni boshqarish orqali biz ularning kelajak avlodlar uchun mavjudligi va saqlanishini ta'minlashimiz mumkin, bu barqaror rivojlanish strategiyasining muhim jihatni hisoblanadi.

Fikrimizcha, "yashil" iqtisodiyot konseptsiyasini shakllantirish va rivojlantirish barqaror va ekologik toza jamiyatni yaratish yo'lidagi muhim qadamdir. Biroq, uni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun global rozilik va davlatlar, biznes va jamoatchilikning birgalikdagi sa'y-harakatlari kerak. Shundagina tabiiy boyliklarni asrash va kelajak avlodlar farovonligini ta'minlash mumkin.

#### **Foydalaniłgan adabiyotlar:**

1. Sharon Beder. Environmental economics and ecological economics: the contribution of interdisciplinarity to understanding, influence and effectiveness// J. Foundation for Environmental Conservation. – Wollongong: № 38 (2), 2011. – rr. 140–150.
2. Vaxabov A.V., Xajibakiyev SH.X. "yashil" iqtisodiyot (Darslik). – Toshkent: Universitet, 2020. – B. 16-19.
3. Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication – A Synthesis for Policy Makers. – Paris: United Nations Environment Programme, 2011. – rr. 33-34.
4. Nima Norouzi. Green Economy: A Necessary Decision to be Taken// Universal Journal of Finance and Economics. – San Jose: № 1, 2021. – rr. 6-7.
5. Lin Zhang, Meng Xu, Huangxin Chen et al. Globalization, Green Economy and Environmental Challenges: State of the Art Review for Practical Implications// J. Frontiers in Environmental Science. – Beijing: № 10, 2022. – rr.
6. Khor, M. Risks and uses of the green economy concept in the context of sustainable development, poverty and equity (Research Paper). – South centre. – Geneva: Econstor, 2011. – rr. 1-6.
7. Dogaru, L. Green Economy and Green Growth – Opportunities for Sustainable Development// J. Proceedings. – Mures: № 63, 2020. – rr. 2-4.
8. D'amato, D., Korhonen, J. Integrating the green economy, circular economy and bioeconomy in a strategic sustainability framework// J. Ecological Economics. – Freiburg: № 188, 2021. – rr. 11-12.
9. Dudin M.N., Kalendyan S.O., Lyasnikov N.V. "Zelenaya ekonomika": prakticheskiy vektor ustoychivogo razvitiya Rossii// J. Ekonomicheskaya politika. – M.: № 2, 2017. – S. 86-99.
10. Xodchenko A.V. Teoreticheskiye osnov issledovaniya zelenoy ekonomiki// J. Finansovye issledovaniya. – M.: № 4 (65), 2019. – S. 57-64.
11. Egorova M.S. Economic Mechanisms and Transition Conditions to Green Economy//J. Fundamental research. – M: № 6, 2014. – pp. 1262-1266.

# Yashi

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 3**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

**Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

